JINOYAT ISHLARINI YAKKA TARTIBDA KO'RIB CHIQISH PRINSIPINING MOHIYATI VA XORIJ TAJRIBASI

O'sarova Saodat
Mustaqil ilmiy tadqiqotchi, Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat ishlarini yakka tartibda (single-judge / bench trial) ko'rib chiqish prinsipining nazariy asoslari, huquqiy bazasi va amaliy oqibatlari tahlil qilinadi. Maqola Fransiya, Germaniya va AQSh tajribalarini solishtiradi, yakka tartibning samaradorligi va xavflarini ko'rib chiqadi hamda milliy qonunchilik va protsessual kafolatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.

Kalit so'zlar: yakka tartib, bench trial, jinoyat protsessi, sud tarkibi, protsedural kafolatlar, comparative law, police, tribunal, jury, juror, judge

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, shuningdek, adolatli sudlovni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sud hokimiyatining mustaqilligi va xolis faoliyati demokratik huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo'lib, bu jarayonda jinoyat ishlarini ko'rib chiqish tartibi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sud ishlarini hay'atda yoki yakka tartibda ko'rib chiqish prinsipi jinoyat protsessining muhim elementlaridan biri sifatida inson huquqlari kafolatlari, sud qarorlarining adolatli va qonuniy bo'lishi, hamda sud tizimining samaradorligini ta'minlaydi. Mazkur prinsipning mazmuni shundan iboratki, jinoyat ishini sud bir nafar sudya (yakka tartibda) yoki bir nechta sudyadan iborat hay'at tomonidan (kollegial tarzda) ko'rib chiqishi mumkin. Bunday yondashuv sudlov jarayonida adolat, xolislik, oshkoralik va tezkorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi hamda Jinoyat-protsessual kodeksi ushbu prinsipni sud tizimining asosiy tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlab qo'ygan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 13-moddasida sud ishlarini ko'rib chiqish hay'atda yoki yakka tartibda amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, JPKning tegishli moddalarida bu prinsipi qo'llashning aniq tartiblari, ya'ni qaysi toifadagi jinoyat ishlari hay'at tarkibida, qaysilari yakka tartibda ko'rilishi huquqiy jihatdan belgilangan.

Biroq amaliyotda mazkur prinsipni tatbiq etish jarayonida bir qator masalalar, xususan, hay'at tarkibining malakasi, qaror qabul qilishdagi sub'ektivlik ehtimoli, sud jarayonining davomiyligi va resurs taqsimoti bilan bog'liq muammolar ham kuzatilmoqda. Shu bois, jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish institutining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, xorijiy tajriba bilan solishtirish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, jinoyat ishlarini ko'rib chiqish shakli nafaqat sudlov samaradorligini, balki fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchi darajasini ham belgilaydi. Shuning uchun ushbu prinsipning huquqiy asoslari, amaliy jihatlari va xalqaro tajribadagi qo'llanish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish orqali sud hokimiyatining mustaqilligini yanada kuchaytirish hamda adolatli sudlovning kafolatlarini takomillashtirish mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Jinoyat protsessida sudlov shakli — yakka sudya yoki kollegial hay'at (hay'at, jury yoki mixed court) — sud adolati, tezkorlik va jamoatchilik ishonchi o'rtasidagi muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yakka tartib (bench trial) odatda yengil va o'rta og'irlikdagi ishlarni tez va samarali hal qilish, sud resurslarini tejash maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, yakka tartib qaror qabul qilishda subyektivlik xavfi, xolislikka ta'siri va jamoatchilik nazorati darajasi kabi huquqiy savollarni keltirib chiqaradi. Maqola ushbu murakkab muammolarni huquqiy jihatdan tahlil qiladi.

Yakka tartibda ishlarni ko'rish prinsipi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ✓ sudlov jarayonini tezlashtirish;
- ✓ sud resurslarini optimallashtirish;
- ✓ murakkab bo'lmagan ishlarni soddalashtirish;
- ✓ huquqiy bahslarni xolis va professional rad hal qilish.

Nazariy jihatdan, yakka tartib sud tizimining strukturaviy moslashuvi bo'lib, u ijtimoiy-yuridik samaradorlikka xizmat qiladi. Biroq bu prinsip sudning mustaqilligi, protsessual kafolatlar va fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchi bilan muvozanatlashishi lozim. Endi esa bir necha davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, Fransiyada jinoyat ishlarini ko'rib chiqish tartibi asosan "Code de procédure pénale"da tartibga solingan. Jumladan, Tribunal correctionnel — o'rta darajadagi jinoyatlar (délits) uchun birinchi instansiya — odatda uch nafar sudyadan iborat bo'lsa-da, "eng kam murakkab, ya'ni yengil" jinoyatlar uchun bir sudya (juge unique) tomonidan ko'rilishi mumkinligi aniq ko'rsatilgan. Masalan, "Code de procédure pénale"ning 398–prim moddasida va shunga bog'liq boshqa moddalar shu tartibni belgilaydi. Bu moddalarga muvofiq, ayrim délitslar hukm davomida bir sudya huzurida ko'rilishi mumkin.

Germaniyada esa yakka sudya (Strafrichter yoki Amtsgerichtdagi Einzelrichter) va aralash hay'at (Schöffengericht — professional sudya + ikki nafar lay judges) qonuniy tartibga solingan. Yakka sudya kompetensiyasi va shartlari Strafprozessordnung (StPO) (jinoiy protsessual kodeksida) hamda "Gerichtsverfassungsgesetz (GVG)" – "Sudlar to'g'risidagi qonuni"da ko'rsatiladi — misol uchun 25-modda (StPO)(yakka sudya vakolati), 28–29-moddalar StPO (Schöffengericht), shuningdek 74-moddasi (GVG) hay'at tarkibini tartibga soladi.

AQShda esa federal darajada huquqiy me'yor — "Federal Rules of Criminal Procedure, Rule 23" — bo'lib, uning 23-moddasiga binoan, ayblanuvchining ishlari odatda jury talabi bilan o'zimizni tilde hay'atda ko'riladi, sud odatda jury bilan bo'lishi kerak, biroq tomonlar yozma ravishda jurydan voz kechib, bench trialni tanlashlari mumkin (muayyan shartlar bilan — hukumat rozi bo'lishi va sud ma'qullashi kerak). Shu tariqa, AQSh tizimi yakka tartib imkoniyatini himoya qilingan huquqiy rejim ichida beradi.

Yakka tartibda ish olib boorish bir qancha yengilliklarni beradi, xususan, yakka tartib jury tanlash jarayoni va muhokama masalalarini qisqartiradi, ya'ni sudyalarni hay'atda qatnashishi uchun tanlash ham ancha vaqtni oladi, shu bilan sud ishlarini tezroq yakunlashga yordam beradi. Yevropa davlatlarida, amaliyotda o'rta yoki quyi sudlarda ishlarning katta qismi yakka tartibda ko'riladi (Fransiya: tribunal de police/tribunal correctionnel, Germaniya: Amtsgericht).

Professional sudya huquqiy qonunlar, qarorlar va qoidalarni aniq qo'llash va faktlarga ilmiy baho berishda malakali hisoblanadi, bu esa murakkab huquqiy masalalarda foydali hisoblanadi. Aksariyat tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik a'zolari (hay'at) bilan solishtirganda professional sudyalarning qonuniy tushunchalarni barqaror va izchil qo'llashga moyil ekanligini ko'rsatadi va sud

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qarorlari barqaror vaziyatda chiqariladi, chunki hay'atda ko'rilganda hay'at azolarining barchasi ham aniq bir to'xtamga kelishlari qiyin bo'ladi.

Yakka tartibda ish ko'rilganda sudya qarori faqat bitta shaxsning bahosiga bog'liq bo'ladi, ya'ni o'zi yolg'iz qaror qabul qiladi va shu sababdan subyektivlik yuqori bo'ladi. Agar yakka tartibda ko'riladigan ishlar uchun protsessual kafolatlar yetarli bo'lmasa (masalan, motivatsiya yetishmasligi, yozma dalillarni baholashda shaffoflik yetishmasligi), inson huquqlari xavfi ortadi. Shu sababli Yevropa qonunchiligida quyidagilar talab qilinadi: yozma dalillarga tayanish, apellyatsiya imkoniyati va sudyalarning shaffofligi.

Aksariyat roman-german huquq oilasiga mansub davlatlarda, mazkur tizim mavjud bo'lib, yakka tartibda ish yuritish olib boriladi. Fransuz va nemis aralash modellari shu kamchilikni bartaraf etish maqsadida jamoat vakillarini (jurorlar yoki Schöffen) jalb qiladi.

Yevropa amaliyoti shuni ta'kidlaydiki, tajribali sudyalarni yetishtirish uchun muntazam malaka oshirishlarni tashkil etish lozim. Yakka tartibda qaror qabul qiluvchi sudyalar yuqori malaka va doimiy professional tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak degan g'oya hamisha ilgari suriladi. Shaffoflik va jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari esa fuqarolarda ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi, hatto yakka tartibda ham sud majlislarining ochiqligi va yozma hujjatlarning mavjudligi, yozma dalillarga tayanilishi, birinchi instansiya sudi qarori ustidan apellatsiya tartibida shikoyatlar berish huquqining mavjudligi va hakazolar fuqarolarning ishonchini saqlab qolishga yordam beradi.

Yakka tartib jinoyat protsessining muhim instituti bo'lib, u sud tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq uning ijobiy jihatlari (tezlik, malaka) va salbiy jihatlari (subyektivlik, jamoatchilik nazorati yo'qligi) mavjud. Shu sababli yakka tartibni milliy qonunchilikda amaliyotga joriy etishda qat'iy protsedural kafolatlar, yozma motivatsiya, apellatsiya huquqi va zarur hollarda aralash modellardan foydalanish talab etiladi. yevropa davlatlaridan, Fransiya va Germaniya misollari (Code de procédure pénale: 398–1-moddasi; StPO & GVG: 25, 28–29, 74-moddalari) amaliy jihatdan foydali mezonlarni namoyish etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Federal Rules of Criminal Procedure — Rule 23. Jury or Nonjury Trial. Legal Information Institute (Cornell).
2. U.S. Courts — Federal Rules of Criminal Procedure (PDF).
3. Code de procédure pénale — Article 398, Article 398-1 (Legifrance).
4. Tribunal correctionnel — ta'rif va tarkib (praktik sharhlar). CABINET ACI.
5. Gerichtsverfassungsgesetz (GVG) §74 — gesetze-im-internet.de.
6. E-Justice / Germany — Ordinary courts, Schöffengericht ta'rifi.
7. Strafrechtsiegen — Gerichtszuständigkeiten va yakka sudya kompetensiyasi (nemischa sharh).
8. Robbennolot, J.K., "Evaluating Juries by Comparison to Judges" — Florida State Univ. Law Review (ilmiy tahlil).
9. Krishnamurthi, G., "The Constitutional Right to Bench Trial" (scholarly article).
10. Cambridge University Press — "Juries, Lay Judges and Mixed Courts" (chapter on mixed systems).
11.https://ir.law.fsu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1261&context=lr&utm_source=chatgpt.com
12. https://en.wikipedia.org/wiki/Tribunal_correctionnel

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.